

SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN YETKAZILGAN ZARAR UCHUN MAS'ULIYAT: YEVROPA AI ACT KONTEXTIDA XALQARO YONDASHUV

Abdurazzakova Mohira Nigmatillayevna

Toshkent shahar yuridik texnikumi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada sun'iy intellekt tomonidan yetkazilgan zarar uchun huquqiy mas'uliyat masalasi Yevropa Ittifoqining AI Act normative-huquqiy bazasi kontekstida tahlil qilinadi. Tadqiqotda AI tizimlarining huquqiy maqomi, javobgarlikni ishlab chiqaruvchi, operator va foydalanuvchi o'rtasida taqsimlash mexanizmlari hamda yuqori xavfli AI tizimlariga qo'yilgan maxsus talablar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Yevropa yondashuvi AQSh va Yaponiya modellari bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada AI qarorlarining "qora quti" xususiyati, transchegaraviy javobgarlik muammolari va algoritmik diskriminatsiya xavfi kabi dolzarb masalalar ochib beriladi. Tadqiqot natijasida sun'iy intellekt uchun maxsus javobgarlik modeli, shaffoflikni oshirish va xalqaro standartlarni uyg'unlashtirish zarurligi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt, AI Act, xalqaro huquq, algoritmik mas'uliyat, elektron shaxs, ishlab chiqaruvchi javobgarligi, yuqori xavfli AI, algoritmik diskriminatsiya, izohlanadigan AI (Explainable AI), transchegaraviy javobgarlik, Product Liability Directive, AI Liability Directive, global standartlashuv, inson nazorati (Human-in-the-loop), huquqiy tartibot, AI xavfsizligi.*

Abstract: *This article examines the issue of legal liability for damages caused by artificial intelligence within the framework of the European Union's AI Act. The study analyzes the legal status of AI systems, mechanisms for allocating responsibility among developers, operators, and users, and specific obligations imposed on high-risk AI systems. Furthermore, the European regulatory approach is comparatively assessed alongside the models adopted in the United States and Japan. Particular attention is given to the "black box" problem, transnational liability challenges, and the risks of algorithmic discrimination. The article argues for the development of a specialized liability regime for AI systems, enhanced transparency requirements, and the harmonization of international legal standards to ensure effective protection of fundamental rights in the digital age.*

Key words: *Artificial Intelligence, AI Act, International Law, Algorithmic Liability, Electronic Personhood, Producer Liability, High-Risk AI Systems, Algorithmic Discrimination, Explainable AI, Cross-Border Liability, Product Liability Directive, AI Liability Directive, Global Standardization, Human-in-the-Loop, Legal Regulation, AI Safety.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается проблема юридической ответственности за вред, причинённый системами искусственного интеллекта, в контексте нормативно-правовой базы Европейского союза — AI Act. В исследовании анализируется правовой статус систем искусственного интеллекта, механизмы распределения ответственности между разработчиком, оператором и пользователем, а также специальные требования, предъявляемые*

к системам высокого риска. Кроме того, проводится сравнительный анализ европейского подхода с моделями регулирования, применяемыми в США и Японии. Особое внимание уделяется проблеме «чёрного ящика», трансграничной ответственности и рискам алгоритмической дискриминации. В статье обосновывается необходимость формирования специальной модели ответственности для систем искусственного интеллекта, усиления требований к прозрачности и гармонизации международных правовых стандартов в целях эффективной защиты прав человека в условиях цифровой трансформации.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, AI Act, международное право, алгоритмическая ответственность, электронная правосубъектность, ответственность производителя, системы высокого риска, алгоритмическая дискриминация, объяснимый искусственный интеллект (Explainable AI), трансграничная ответственность, Директива о ответственности за продукцию (Product Liability Directive), Директива об ответственности в сфере ИИ (AI Liability Directive), глобальная стандартизация, человеческий контроль (Human-in-the-loop), правовое регулирование, безопасность ИИ.

KIRISH

XXI asr texnologik taraqqiyoti sun'iy intellekt (SI, AI) tizimlarining keng miqyosda qo'llanilishiga olib keldi. Avtonom transport vositalari, algoritmik tibbiy tashxis, biometrik monitoring, kiberxavfsizlik, robotlashtirilgan ishlab chiqarish kabi sohalar AI'ning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, AI noto'g'ri qarorlar, texnik xatoliklar yoki algoritmik diskriminatsiya sababli jiddiy zararlar keltirishi mumkin.

Asosiy huquqiy muammo shundaki, AI subyekt sifatida huquqiy javobgarlikka ega emas, shu sababli mas'uliyatni kim zimmasiga olishi kerakligi global muhokama markazidadir: ishlab chiqaruvchimi, operator, foydalanuvchi yoki yangi "elektron shaxs" tushunchasi joriy etilishi kerakmi?

Yevropa Ittifoqi 2024-2025-yillarda qabul qilgan European Artificial Intelligence Act (AI Act) dunyoda AI xavfsizligini tartibga soluvchi birinchi keng qamrovli huquqiy model hisoblanadi. Ushbu maqolaning maqsadi – AI Act doirasida mas'uliyat tizimini tahlil qilish, uni AQSH, Yaponiya va xalqaro tashkilotlar yondashuvi bilan solishtirish hamda AI tomonidan yetkazilgan zarar uchun global javobgarlik modelini taklif qilishdir.

Sun'iy intellektning huquqiy maqomi.

AI tizimlari klassik huquqiy subyektlik mezonlariga (ong, iroda, javob berish qobiliyati) ega emas. Sh sababli ilmiy doiralarda ikki yondashuv shakllangan:

1. Instrumental yondashuv – AI faqat vosita, mas'uliyat inson yoki kompaniyaga yuklanadi.
2. Elektron shaxs (electronic personhood) konsepsiyasi – murakkab, avtonom AI tizimlari alohida huquqiy maqomga ega bo'lishi kerakligi taklif etiladi.

Germaniya huquqshunoslari AI'ni mustaqil subyekt sifatida tan olishga qarshi chiqib, mas'uliyatni ishlab chiqaruvchi va operatorlar zimmasiga yuridik jihatdan adolatli taqsimlash tarafdori.

Yevropa AI Act va yangi javobgarlik modeli.

AI Act dunyodagi eng kompleks AI tartibotidir. Unda AI tizimlari 4 risk darajasiga bo'linadi:

1. Minimal xavfli (masalan, filtrlar, o'yin algoritmlari)
2. Past xavfli
3. Yuqori xavfli (High-risk) – tibbiyot, transport, sud tizimi, infratuzilma
4. Taqiqlangan (deep surveillance, manipulyativ AI)

Mas'uliyat tamoyillari

Bu yondashuv AI noto'g'ri qaror qabul qilganda javobgarlik zanjirini aniq belgilaydi.

Sun'iy intellekt tomonidan yetkazilgan zararlar tahlili

Avtonom transport vositalari – masalan, Mercedes yoki tesla autopilot tizimlari sababli yo'l-transport hodisalari. Mas'uliyat odatda ishlab chiqaruvchi, operator birgalikda. Tibbiy AI xatolari – noto'g'ri diagnostika, radiologik tasvirlarni noto'g'ri tahlil qilish. AI Act bo'yicha “yuqori xavfli” turga kiradi. Algoritmik diskriminatsiya – ishga qabul qilish algoritmlari jins, irq, yosh bo'yicha nohaq qaror chiqarishi mumkin. Kiberxavfsizlik – AI asosidagi kiberhujumlar yoki AI tomonidan boshqariladigan xavfsizlik tizimi xatolari global xavf.

Sun'iy intellekt tomonidan yetkazilgan zarar tahlili. Avtonom transport vositalari. Masalan, Mercedes yoki Tesla autopilot tizimlari sababli yo'l-transport hodisalari. Mas'uliyat odatda ishlab chiqaruvchi va operator birgalikda. Tibbiy AI xatolari; noto'g'ri diagnostika, radiologic tasvirlarni noto'g'ri tahlil qilish. AI Act bo'yicha “yuqori xavfli” turga kiradi. Algoritmik diskriminatsiya – ishga qabul qilish algoritmlari jins, irq, yosh bo'yicha nohaq qaror chiqarishi mumkin. Kiberxavfsizlik – AI asosidagi kiberhujumlar yoki AI tomonidan boshqariladigan xavfsizlik tizimi xatolari bu – global xavf.

Xalqaro yondashuvlarning qiyosiy tahlili. AQSH yondashuvi – bozor erkinligi; federal darajada yagona AI qonuni yo'q, mas'uliyat ko'proq sud amaliyotiga tayanadi, “Innovatsiyani cheklamaslik” prinsipi bu asosiysi. Yevropa yondashuvi – ehtiyotkorlik va inson xavfsizligi. Keng monitoring va sertifikatlash, AI faoliyatining deyarli barcha bosqichlari nazoratda bo'lishi. Yaponiya yondashuvi – “yumushoq tartibot” bunda etiket qoidalari kuchli va qattiq qonunlar emas, balki ko'rsatmalar va tavsiyalar. Bmt va OECD standartlari – AI uchun global etik tamoyillar: shaffoflik, javobgarlik, adolat. Lekin majburiy emas, faqat tavsiya sifatida mavjud. Muammolar va mavjud bo'shliqlar – AI qarorining manbai aniqlanmaydigan “qora quti effekti”. Ai transchegaraviy xatti-harakati – bir davlatda zarar, boshqasida ishlab chiqaruvchi. Algoritmning o'z-o'zini o'rganishi (self-learning) natijasida dastlabki dasturchi ham javobgarlikdan chetda qolishi mumkin. Huquqiy subyektlik masalasi hal qilinmagan.

Takliflar va xalqaro standartlashuv zaruriyati:

AI uchun maxsus javobgarlik modeli yaratish, inson nazorati tamoyili asosiy ustun bo'lishi kerak. AI shaffofligi va izohlanadigan AI (Explainable AI) majburiy bo'lsin. Global AI Risk Rating tizimini yaratish. Xalqaro AI tribunal yoki arbitraj tizimini joriy etish. AQSH, Yevropa va Osiyo standartlarini uyg'unlashtirish, chunki AI transchegaraviy hisoblanadi. AI ishlab chiqaruvchilar uchun majburiy sug'urta mexanizmi joriy qilinishi kerak.

Xulosa

Sun'iy intellect insoniyatning barcha sohalariga kirib kelar ekan, undan kelib chiqadigan xavf va zararlar global miqyosda tartibga solinishi zarur. Yevropa AI Act hozircha dunyodagi eng mukammal AI huquqiy modeli bo'lib, inson huquqlarini ustuvor qo'yadi. Biroq AI mas'uliyatini belgilash bo'yicha davlatlar o'rtasida yondashuvlar turlicha bo'lgani sababli yagona xalqaro standartga ehtiyoj tug'ilmoqda.

Maqolada taklif etilgan mexanizmlar – AI javobgarligini aniq belgilash, shaffoflikni oshirish, global nazorat organlarini yaratish – kelajakda AI xavfsizligi va inson huquqlarini himoya qilishning asosiy kafolatiga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. European Commission. (2024). Artificial Intelligence (AI Act)
 2. European Commission. (2024). AI Liability Directive.
 3. OECD. (2023). OECD Principles on Artificial Intelligence.
 4. Brundage, M., et al. (2022). The Malicious Use of Artificial Intelligence: Forecasting, Prevention, and Mitigation.
 5. Selbst, A.D., & Barocas, S. (2023). The Intuitive Appeal of Explainable AI vs. Its Technical Limitations.
- Wachter, S., Mittelstadt, & Floridi, L. (2017). Why a Right to Explantation of Automated Decision-Making Does Not Exist.